IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

YANGI O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

Abdukarimova Roxila Abdurayimovna
Talaba, Far’gona davlat universiteti, Farg’ona shahri
Abdukarimovarohila3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola gender tengligi hozirgi davrda dolzarb muammolardan biriga aylanayotganligi va konsepsiyalarning ahamiyati muhim ekanligiga ba’g’ishlanadi. Bugungi kunda gender tengligi uchun kurash bor ekan, gender tengligi tushunchasi nimani anglatishi va undan qanday foydalanish kerakligi haqida ham munozaralar bo’lib kelmoqda. Ba’zida shunga o’xshash tushunchalar bir-birining o’rnida ishlatiladi - bunday tushunchalarni barcha ham to’laqonli tushuna olmaydi. Gender tengligiga muqobil sifatida nisbatan tez-tez ishlatiladigan tushuncha gender tengligidir. Shuningdek, maqolaning asosiy maqsadi gender tengligi va gender o’rtasidagi farqni aniqlashdir.

Tayanch so’z va iboralar: Gender, jins, konsepsiya, ayollar teng huquqligi, gender barqarorlik, identifikator, BMT, CEDAW, ayollar huquqlari konvensiyasi.

Mamlakatimizda so'ngi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat bermoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan va qo'llab-quvvatlash zarurligi e'tirof etilayotgan muxim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyatining ilk kunlaridanoq asosiy e'tiborni ayollar va oila muammolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda bir qator qonunlar, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Ayollar va erkaklar, qizlar va o’g’il bolalarning teng huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlarini nazarda tutadi. Tenglik ayollar va erkaklar bir xil bo’lishini anglatmaydi, balki ayollar va erkaklarning huquqlari, majburiyatlari va imkoniyatlari ularning erkak yoki ayol bo’lib tug’ilishiga bog’liq emasligini bildiradi. Gender tengligi ayollar va erkaklarning turli guruhlari xilma-xilligini tan olgan holda, ayollar va erkaklarning manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinishini anglatadi. Gender tengligi ayollar muammosi emas, balki erkaklar bilan bir qatorda to’liq jalb qilinishi kerak. Ayollar va erkaklar o’rtasidagi tenglik ham inson huquqlari muammosi, ham odamlarga yo’naltirilgan barqaror rivojlanishning dastlabki sharti va ko’rsatkichi sifatida qaraladi.

Ma’lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g’risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma’qullangandi. Hozir davrda O‘zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng

huquqlidirlar», deb belgilanganligidir. Demak, gender tengligining ham xalqaro huquqiy ham, konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas.

O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi.

Boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi.

Jamiyatda, oilada xotin-qizlar bilan bog'liq ijtimoiy masalalarni yaxshilash bilan shug'ullanadigan O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning barcha viloyatlardagi bo'linmalari, Oliy Majlisning «Mehnat, ijtimoiy masalalar va bandlik qo'mitasi», «Oila va ayollar muammolari komissiyasi» (2000-2004 y.), "Sog'lom avlod" jamg'armalari va "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" jamoatchilik uyushmalari hamda boshqa jamoat tashkilotlarining faoliyati muhimdir Buning tasdig'ini ayollarning siyosiy partiyalardagi faolligi 36 foizdan 50 foizgacha oshganida kuzatishimiz mumkin. Bugungi kunda ayollarimiz iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Jumladan, sanoatda 52%, xalq ta'limi tizimida 70%, sog'liqni saqlash tizimida esa 73% ayollar mehnat qilmoqdalar.

Rivojlangan davlatlarda ayolning huquq va erkinliklari muhim omil sifatida e'tirof e'tiladi. Bunga sabab oddiy ya'ni ayolning qadr-qimmati uning jamiyatdagi o'rni bilan belgilanadi. Ayollar qanchalik ilm-fan sohasida, yoki ijtimoiy -siyosiy sohalarda faolligi oshgansari jamiyat ham yuksala boshlaydi. Ayollarning intellektual salohiyati yuksalishi, jamiyatda komil insonlarning kamol topishi uchun zamin yaratadi. Jamiyatda erkak va ayolning teng huquqli ekanligi, oilaning mustahkamligini huquqiy jihatdan mustahkamlsa, ayollarning yuksak ma'naviyati esa oilani axloqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi. Zero, bu muhim omil oilani mustahkamlash, yuqori intellektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy poydevori hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna_Genderlik tenglik tushunchasi va gender tenglikni ta'minlashning asosiy tamoyillari_issn: 2181-4027_sjif: 4.995_pedagogs international research journal
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. "O'zbekiston", 2007.
3.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son